XALQ DEPUTATLARI KO‘KDALA TUMANI KENGASHI

181214, Ko‘kdala tumani, ErkinVohidov ko‘chasi, 1-uy. Tel: (75) 230-14-59

2023 - yil 22 - fevral VI-9-23-4-224-K/23 Ko'kdala tuman hokimligi

Ko‘kdala tumanidagi “Chuvulloq”, “Annaro‘z”, “ Xarduri ”, va “ Guliston ” mahalla fuqarolar yig‘inlari negizida yangidan tashkil topgan mahalla fuqarolar yig‘inlarini nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2011 yil 12 oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-303-sonli Qonunining 10-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 16 oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq Geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qarori ijrosi yuzasidan hamda “Chuvulloq”, “Annaro‘z”, “ Xarduri ”, va “ Guliston ” mahalla fuqarolar yig‘inlarining iltimosnomalari va Kengash qarorlari, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Qashqadaryo viloyat hokimligi huzuridagi komissiyasining 2023-yil 30-yanvardagi №15/365-sonli xulosalari hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 -va 24-moddasiga asosan Xalq deputatlari Ko‘kdala tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Qashqadaryo viloyat komissiyasining 2023-yil 30-yanvardagi №15/365-sonli xulosalariga muvofiq Ko‘kdala tuman hokimining aholi punktlarining tarkibiy qismlariga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish to‘g‘risidagi taklifi hamda “Chuvulloq”, “Annaro‘z”, “ Xarduri ”, va “ Guliston ” mahalla fuqarolar yig‘inlarining iltimosnomalari va Kengash qarorlari ma’qullansin.

2. Tumandagi yangidan tashkil etilgan mahalla fuqarolar yig‘inlariga “Yangi O‘zbekiston”, “Istiqlol”, “Karvon yo‘li”, “Bunyodkor” deb nom berilsin.

3. Tuman hokimi maslahatchisi (D.Haydarova)ga bir hafta muddatda tuman

hududida yangidan tashkil etilgan mahalla fuqarolar yig‘inlarining nomlarini zamonaviy ko‘rinishda peshlavhalarga yozib o‘rnatish vazifasi yuklatilsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi Ko‘kdala tuman bo‘limi (F.Muminov) yangidan tashkil etilgan “Yangi O‘zbekiston”, “Istiqlol”, “Karvon yo‘li”, “Bunyodkor” mahalla fuqarolar yig‘inlarini hududiy chegaralarini belgilab va xaritalarini tasdiqlab, bir hafta muddatda Xalq deputatlari Ko‘kdala tuman Kengashiga taqdim etsin.

5. Tuman ichki ishlar bo‘limi (Sh.Shokirov) yangidan tashkil etilgan “Yangi O‘zbekiston”, “Istiqlol”, “Karvon yo‘li”, “Bunyodkor” mahalla fuqarolar yig‘inlari hududida yashovchi aholining fuqarolik pasportlari berilayotganda mazkur holatga alohida e’tibor qaratsin.

6. Ushbu qarorni tuman rasmiy saytlarida e‘lon qilish tuman matbuot kotibi (O.Xudoyberdiyev) Ko‘kdala tuman matbuotida e’lon qilinsin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashi doimiy komissiyasi hamda Ko‘kdala tumani mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i (A.Kengboyev) zimmasiga yuklatilsin.

8. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Kengash raisi **X.Djurayev**